

O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

*60310100 - Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligida)  
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari*

Toshkent



## **ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

- Toshkent davlat agrar universiteti;
- O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021 yil «24» 08 dagi 4 - sonli yig‘ilishida ma’qullangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil «25» 08 dagi 365- sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

## **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

	bet
<b>T/r</b>	
1. <i>60310100 - Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) bakalavriat ta'lif yo'naliishing umumiy tavsifi .....</i>	4
1.1. Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1. <i>60310100 - Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) ta'lif yo'naliishi Malaka talabining qo'llanilishi.....</i>	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. <i>60310100 - Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) ta'lif yo'naliishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....</i>	4
1.2.1. <i>60310100 - Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) ta'lif yo'naliishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.....</i>	4
1.2.2. <i>60310100 - Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) ta'lif yo'naliishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....</i>	4
1.2.3. <i>60310100 - Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) ta'lif yo'naliishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari.....</i>	5
1.2.4. <i>60310100 - Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) ta'lif yo'naliishi bo'yicha bakalavrularning kasbiy vazifalari.....</i>	5
2. <i>60310100 - Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) ta'lif yo'naliishi bo'yicha bakalavrularning kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar.....</i>	6
2.1. Umumi kompetentsiyalar.....	6
2.2. Kasbiy kompetentsiyalar.....	7
Bibliografik ma'lumotlar.....	9
Kelishuv varag'i.....	10

## **1. 60310100 - Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) bakalavriat ta'lif yo'naliшining umumiy tavsifi**

**60310100 - Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida)** ta'lif yo'naliши bo'yicha bakalavrлar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lif shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lif shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'lifda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. 60310100- Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) ta'lif yo'naliши malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi **60310100 – Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida)** ta'lif yo'naliши bo'yicha bakalavrлar tayyorlovchi barcha oliy ta'lif tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

##### **1.1.2. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta'lif yo'naliш bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lif tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lif yo'naliшining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lif tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'lifni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lif tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lif tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lif tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

#### **1.2. 60310100 - Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) ta'lif yo'naliши bo'yicha bakalavrлar kasbiy faoliyatlarining tavsifi**

##### **1.2.1. 60310100 - Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) ta'lif yo'naliши bo'yicha bakalavrлar kasbiy faoliyatining sohalari:**

###### **60310100 - Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) bakalavriat ta'lif yo'naliши**

"Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar" ta'lif sohasiga oid yo'naliш bo'lib, qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy salohiyat va vazifalarni o'rganadigan ta'lif yo'naliши bo'lib, u ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmualari rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari va mintaqalarda makro-mikroiqtisodiy rivojlanish va uni tartibga solish mexanizmi, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga hamda milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash strategiyasi va yo'naliшlari majmuasini qamrab oladi.

##### **1.2.2. 60310100 - Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) ta'lif yo'naliши bo'yicha bakalavrлar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:**

- iqtisodiyotning agrosanoat majmuasi sohalari;

- ya'ni agrofirmalar, fermer, dehqon va shirkat xo'jaliklari,

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tayyorlash va qayta ishlash korxonalarining iqtisodiy faoliyat jarayoni,

- boshqa mulkchilik shaklidagi korxonalarni boshqarish va ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini ta'minlash.

-shuningdek, qishloq hududlarida faoliyat yuritayotgan moliyaviy muassasa va jamg'armalar ham kasbiy faoliyat ob'ektlari hisoblanadi.

60310100- *Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida)* ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lif muassasalarida ta'lifning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega boladi. Bakavriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

#### **1.2.3. 60310100 - Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari**

- moliyaviy-iqtisodiy;
- hisob, tahlil va nazorat;
- tashkiliy-boshqaruv;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;
- ilmiy-tadqiqot.
- tadbirkorlik.

#### **1.2.4. 60310100 – Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy vazifalari.**

60310100 – *Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida)* ta'lif yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

##### **Moliyaviy-iqtisodiy faoliyatda:**

- davlat va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasini boshqarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish;
- qishloq xo'jaligi korxonalari biznes-rejaclarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ASM tarkibidagi tarmoq va korxonalarda marketing tadqiqotlarini o'tkazish;
- qishloq xo'jaligi sub'ektlari faoliyati samaradorligini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlarni hisoblash usullarini qo'llash;
- ASM tarkibidagi tarmoq va korxonalarning iqtisodiy barqarorligini oshirish va uni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish.

##### **Hisob, tahlil va nazorat faoliyatida:**

- iqtisodiyotning qishloq xo'jaligiga oid ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishslash, tahlil qilish usullarini bilish;
- iqtisodiy ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish;
- qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini mulkchilik shaklidan qat'iy nazar xalqaro amaliyot mezonlari, me'yordi va talablari asosida tahlil qilish;
- ASM tarkibidagi tarmoq va korxonalar ko'rsatkichilarining o'zgarish tendentsiyalari va dinamikasini tahlil qilish;
- ASM tarkibidagi tarmoq va korxonalar moliyaviy va statistik hisobotlarini tuzish hamda ularni sharhlash;
- tahliliy masalalarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan va texnik vositalardan foydalanish.

##### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- qishloq xo'jaligida xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini rejalashtirish, xisob-kitob va tahlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, huquqiy hamda normativ huquqiy hujjatlarni;
- qishloq xo'jaligida rejalashtirish ishlarini tashkil etish;
- ASM tarkibidagi tarmoq va korxonalarda xo'jalik-moliyaviy va ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha istiqbolli va joriy rejalarni (dasturlarini) ishlab chiqish;
- biznes-rejani ishlab chiqarish;

- reja, xisob-kitob hujjatlarni yuritish;
- moddiy, mexnat va moliyaviy xarajatlar normativini ishlab chiqarish;
- xo‘jalik yurituvchi sub’ekt va uning buyruqlari faoliyatini iqtisodiy tahlil hamda hisob-kitob qilish;
- mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, ratsionalizatorlik takliflar va ixtiolar bo‘yicha iqtisodiy samaradorlikni aniqlash;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini olib borish uslublari va vositalardan foydalanish;
- shartnomalarni tuzish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni to‘plash;
- tezkor va statistik hisobotni olib borishni tashkil etish;
- hisobotlarni tuzish tartiblarini aniqlash;
- xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni iqtisodiy faoliyatini ratsional tashkil etishda mamlakatimiz va horijiy tajribasini o‘rganish;
- ishlab chiqarish, mehnat va boshqaruvni tashkil etish;
- ishlab chiqarishni texnologik asoslarini bilish;
- xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni texnika-iqtisodiy hisob-kitoblarni va xo‘jalik faoliyatini olib borishda axborot-kommunikatsiya vositalardan foydalanish;
- mehnatni muhofaza qilish norma va qoidalariga amal qilish.
- ASM tarkibidagi tarmoq va korxonalari faoliyatni sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;
  - ASM tarkibidagi tarmoq va korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
  - zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
  - ASM tarkibidagi tarmoq va korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar echimlarini amaliyotga tatbiq etish;
  - ASM tarkibidagi tarmoq va korxonalari ishlab chiqarish jarayonlarida iqtisodiy va moliyaviy faoliyatni boshqarish;
    - fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
    - ASM tarkibidagi tarmoq va korxonalari ishni tashkil qilish va uni boshqarish;
    - bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;
    - ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong‘in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish.

**Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatida:**

- qishloq xo‘jaligi korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ishlarini rejalashtirish va bajarish;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning namunaviy texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va qo‘llash;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan moddiy va moliyaviy resurslarni rejalashtirish;
- qishloq xo‘jaligi korxonalari bilan infratuzilma sub’ektlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish;
  - tarmoqda investitsion faoliyatni jadallashtirish maqsadida loyiham ishlab chiqish;
  - qishloq xo‘jaligi korxonalarining biznes-rejasini ishlab chiqish;
  - qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatini tahlil qilish;
  - amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini qo‘llash;
  - ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalarini rivojlantirishning istiqbolli rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish;

– qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalarini raqobat strategiyalarini ishlab chiqish.

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

– ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta’lim yo‘nalishlaridagi fanlar va ularni o‘qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;

– qishloq xo‘jaligi korxonalarida ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishga qatnashish;

– ASM tarkibidagi tarmoq va korxonalariga tegishli mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yituqlarini, maxsus adabiyotlarni va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o‘rganish;

– ASM tarkibidagi tarmoq va korxonalaridagi muammolar mavzulari bo‘yicha iqtisodiy axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

– internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yituqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

– ta’lim yo‘nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to‘plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yituqlarini o‘rganish;

– ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

– ma’lumotlarni jamlaydi, qayta tayyorlaydi, mavzu bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish;

– tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish;

– ilmiy muammolar echimi natijalarini amaliyotga joriy etish.

**Tadbirkorlik faoliyatida:**

– yangi biznes-loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish;

– biznesni tashkil etish, biznes-rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

## **2. 60310100 - Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligida) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr larning kasbiy kompetentsiyalariga qo‘yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetentsiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tassavvurga ega bo‘lish.

### **2.2. Kasbiy kompetentsiyalar:**

- me’yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo‘llash, tadbirlarni rejashtirish va amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

- korporativ axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni, ma’lumotlar bazasini yuritishni bilish;

- strategik va operatsion boshqaruv vazifalarini, ishni tashkil qilish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga etakchilik qilishni bilish;
- strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni ta'minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- aktivlarni baholash, aylanma mablag'larni boshqarish, dividend siyosati va kapital tuzilmasini shakllantirishda moliyaviy boshqaruvning asosiy usullarini qo'llay bilish;
- loyihalar, biznes-rejalar va shartnomalarni shakllantirish hamda boshqarish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- makroiqtisodiy muhitni, bozor va unga xos xatarlarni, raqobat muhitini tahlil qilish va baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, ularni aniq boshqaruv vazifalariga moslashtirish orqali iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruv modellarini shakllantirishda miqdoriy va sifatli tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- buxgalteriya siyosati va tashkilotning moliyaviy hisobotlarini shakllantirishda moliyaviy buxgalteriya hisobining asosiy printsiplari va standartlarini, boshqaruv hisobi ma'lumotlari asosida xarajatlarni boshqarish va qarorlarni qabul qilish uquviga ega bo'lish;
- biznes jarayonlarini modellashtirish, biznes yuritishning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini baholash, yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash va yangi biznes modellarini shakllantirishni bilish;
- yangi tashkilotlarni (faoliyat yo'nalishlari, mahsulotlari) yaratish va rivojlantirish uchun biznes rejalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish.

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetentsiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, profil, uqib-o'rghanish natijalari, iqtisodiyot, agrosanoat majmuasi, biznes reja, ishlab chiqarish samaradorligi, klasterlar, raqobat, innovatsiya, qishloq xo'jaligida raqamli iqtisodiyot, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

## KELISHUV VARAG'I

### ISHLAB CHIQILDI:

Toshkent davlat agrar universiteti

Rektor  B. Sulaymonov

2021 yil « 19 » 08



### KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limini rivojlantirish  
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarini tatbiq  
etish markazi

Direktor v.b.  M. Esonov

2021 yil « 14 » 08  
M.O.




O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi  
vazirining iqtisod, innovatsion rivojlanish va  
investitsiyalar masalalari bo'yicha  
maslahatchisi


A. Shukurov

2021 yil « 30 » 08

M.O.



Andijon qishloq xo'jaligi va  
agrotexnologiyalar instituti

Rektor  K. Komilov

2021 yil « 19 » 08



Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasi  
iqtisodiyoti ilmiy-tadqiqot instituti

Direktor  T. Farmonov

2021 yil « 19 » 08

M.O.

